

## MA’MURIY NAZORAT VA PROFILAKTIK HISOB INSTITUTINI BEKOR QILGAN HOLDA PROFILAKTIK NAZORAT INSTITUTINI JORIY QILISH

*Shaxboz Ne’matjonov Ne’matjon o’g’li*

*Ichki ishlar vazirligi akademiyasi huquqshunoslik*

*Shaxboz Ne’matjonov Ne’matjon o’g’li*

*O‘zbekiston respublikasi ichki ishlar vazirligi akademiyasi*

*Magistraturasi tinglovchisi*

*+998(99)-880-06-50*

### ANNOTATSIYA

Maqolada Ma‘muriy nazorat hamda profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan profilaktik suhbat o‘tkazish, hisobga qo‘yish va hisobdan chiqarish tartibini amalga oshirish usullari, profilaktik hisobda turgan shaxslarga nisbatan yurtilgan profilaktik hisobni amalga oshirish tartibi va shu kabi boshqa holatlar ilmiy tahlil qilingan hamda bu borada tegishli takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** ma‘muriy nazorat profilaktik hisob, hisobga qo‘yish, hisobdan chiqarish, profilaktika inspektori, huquqbuzarlik, profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika, xorijiy tajriba.

### ABSTRACT

In the article, the methods of conducting a preventive interview with preventively registered persons, implementing the procedure for recording and de-registration, the procedure for implementing preventive accounting against persons on preventive registration and other similar cases are scientifically analyzed and relevant proposals are put forward in this regard. .

**Key words:** preventive accounting, accounting, write-off, preventive inspector, crime, prevention, individual prevention, foreign experience.

### АННОТАЦИЯ

В статье научно анализируются проведение профилактического собеседования с лицами, состоящими на профилактическом учете, проведение процедуры учета и снятия с учета, порядок ведения профилактического учета для лиц, находящихся на профилактическом учете, и аналогичные случаи и вносятся соответствующие предложения. вперед. В этом отношении. .

**Ключевые слова:** профилактический учет, учет, списание, профилактический инспектор, преступление, профилактика, индивидуальная профилактика, зарубежный опыт.

## KIRISH

Jamiyatimiz rivojlanib borgan sari, huquqbuzarliklar sodir etish mexanizmlari ham murakkablashib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Shu boisdan bugungi kunda sodir etilayotgan huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish va uni amalga oshirishda nafaqat ichki ishlar organlari, balki barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikdagi faoliyatining o‘rni muhim yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentdi Shavkat Mirziyoyevning **“Qonun va adolat – ustuvor, jinoyatga jazo – muqarrar”** degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e‘tibor qaratiladi. Buning uchun avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va masuliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralari ko‘rishimiz darkor” deb ta’kidlab o‘tganlar. [1]

Bugungi kunda, asosiy e‘tibor, voyaga yetmaganlar va yoshlar tarbiyasiga qaratilib, o‘quvchi va talabalarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularning ta’lim muassasalaridagi davomatini ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Buning natijasida Respublikamizda voyaga yetmaganlar, yoshlar o‘rtasida shu jumladan maktab va litsey o‘quvchilari o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatlarning salmigi kamayishiga erishilmoqda. Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi shaxsning ijtimoiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy maishiy sharoitlari va turmush tarzi, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorini, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligini, shuningdek sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflovchi boshqa omillar hisobga olingan holda belgilanadi. Profilaktika suhbatlari ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi sohaviy xizmatlari xodimlari tomonidan o‘tkaziladi.

Profilaktika suhbatlari ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi sohaviy xizmatlari joylashgan yerda, ichki ishlar organlarining tayanch punktlarida, shuningdek shaxsning yashash, o‘qish, ish joyida yoxud bevosita g‘ayriijtimoiy xulq-atvor yoki huquqbuzarlik aniqlangan joyda o‘tkaziladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Profilaktika suhbatlari davomida shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, uning turmush tarzi va ijtimoiy-maishiy yashash sharoitlari, shuningdek g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning yoki sodir etilgan huquqbuzarlikning sabablari va shart-sharoitlari aniqlanadi. Profilaktika suhbatlari shaxsni profilaktik hisobga qo‘yishda ham o‘tkaziladi. Profilaktik

hisobga olish O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunosti hujjatlarida nazarda tutilgan shaxslarga nisbatan ularning tuzalishi va takroran huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan profilaktika tadbirlari majmuidir.

Profilaktik hisobga olish ishlari, ilgari sudlanganlar ular jinoiy jazoni o‘taganidan so‘ng (o‘ziga nisbatan ma‘muriy nazorat o‘rnatilgan shaxslar bundan mustasno), o‘ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslarga, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga muvofiq aybdorlik to‘g‘risidagi masala hal qilinmasdan turib o‘ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan yoxud reabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan shaxslarga, o‘ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyot chorasi tanlangan jinoyat sodir etishda ayblanuvchilarga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 1651, 183, 1841, 1842, 1843, 187, 188, 1881, 189, 1891, 190, 191, 201, 202, 2021, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlarga hamda ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytgan shaxslarga nisbatan yuritilishi belgilangan.[2]

Profilaktika ishini yuritayotgan xodim profilaktik hisobda turgan shaxsga nisbatan individual profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaxsning yoshi, jinsi, ruhiy holati, ijtimoiy ahvoli, ma‘lumoti va mutaxassisligi, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari kabi shaxsiy xususiyatlarini e‘tiborga olishi lozim.

Shuningdek, Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalarida hamda ichki ishlar organlarining tayanch punktlarda jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida, quyidagi huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarning ro‘yxati yuritilishi belgilangan:

surunkali alkogolizmga muhtalo bo‘lgan shaxslar;

giyohvandlikka chalingan shaxslar;

zaharvandlikka chalingan shaxslar;

ruhiy kasallar; tanosil kasalliklariga chalingan shaxslar; doimiy yashash joyidan uzoq muddatga chiqib ketgan shaxslar;

jazoni ijro etish inspeksiyalari hisobida turgan hamda ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turish muddati tugaganligi sababli profilaktik hisobdan chiqarilgan, ammo O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 78-moddasida ko‘rsatilgan sudlanganlik holati tugallanmagan ilgari sudlangan shaxslarning ro‘yhatlari yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi PF-6196-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021 yil 29 noyabr) PF-27-son farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi [1-ilovaga](#) muvofiq, 2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi [2-ilovaga](#) muvofiq, 2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi [1-ilovaga](#), 2022-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi [2-ilovaga](#), 2022-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlandi.

Mazkur farmon asosida tasdiqlangan “2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi”ga muvofiq, jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimlashtirish hamda mavjud huquqiy bo‘shliq va ziddiyatlarni bartaraf etish, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash va probatsiya faoliyatini uyg‘unlashtirish, jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga jalb qilinadigan vazirlik va idoralar kuch va vositalarining birgalikdagi harakatlanish algoritmini ishlab chiqish va uni doimiy takomillashtirib borish, jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatiga zamonaviy shakl va ish usullarini hamda ilg‘or axborot texnologiyalarini keng joriy etish, jamoat xavfsizligi tizimini raqamlashtirishni 90 foizga yetkazish orqali xizmat faoliyatida inson omilini minimallashtirish, profilaktik hisob, ma‘muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini keskin kamaytirish yuzasidan vazifalar belgilangan.

Shuningdek, mazkur farmon bilan tasdiqlangan 2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI” da, profilaktik hisob, ma‘muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslarga o‘rnatiladigan cheklovlar, shuningdek, ularning zimmasiga yuklanadigan majburiyatlar doirasini va ularga rioya etilishini ta‘minlash mexanizmlarini aniq belgilash:

Profilaktik hisob, ma‘muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslarning o‘rnatilgan cheklovlarga rioya etilishini va ularning zimmasiga yuklangan

majburiyatlarni bajarishini ta'minlash, tekshirish va nazorat qilish, shuningdek, ushbu shaxslarga tarbiyaviy va huquqiy ta'sir choralarni qo'llash hamda ularni ijtimoiy moslashtirish bo'yicha “Harakatlar protokoli”ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

Ma'muriy nazorat va profilaktik hisob institutlari negizida profilaktik nazorat institutini joriy qilish vazifalari belgilangan.

В соответствии с постановлением, Концепция общественной безопасности Республики Узбекистан согласно приложению 1, стратегия развития системы общественной безопасности в Республике Узбекистан на 2022-2025 годы согласно приложению 2, содействие развитию общественной безопасности в Республике Узбекистан на 2022-2025 годы Утверждена «Дорожная карта» реализации стратегии развития системы снабжения в 2022 году согласно приложению 3.

Концепция общественной безопасности Республики Узбекистан приложена к приложению 1, стратегия развития системы общественной безопасности Республики Узбекистан на 2022-2025 годы - к приложению 2, стратегия развития общественной безопасности системы в Республике Узбекистан в 2022-2025 годах утверждена «дорожная карта» реализации согласно приложению 3.

В соответствии со «Стратегией развития системы общественной безопасности в Республике Узбекистан на 2025 год», утвержденной на основании настоящего постановления, регулирование и систематизация отношений в области общественной безопасности и устранение существующих правовых пробелов и коллизий, обеспечение общественного порядка, разработка алгоритма совместного движения сил и средств министерств и ведомств, занимающихся профилактикой правонарушений, обеспечением безопасности дорожного движения и координацией пробационной деятельности, поддержанием общественного порядка, в том числе публичными мероприятиями, и постоянным его улучшением, общественным безопасностью широкое внедрение современных форм и методов работы и передовых информационных технологий при оказании услуг, минимизация человеческого фактора в сервисной деятельности за счет повышения цифровизации системы общественной безопасности до 90%, предотвращение рецидивов преступлений со стороны лиц, находящихся под административным контролем и пробационным контролем. определены задачи сокращения.

Также в «ДОРОЖНОЙ КАРТЕ» по реализации Стратегии развития системы общественной безопасности в Республике Узбекистан на 2022-2025 годы, утвержденной настоящим постановлением, лицам, состоящим на профилактическом учете, административном контроле и контроле пробации,

четко определены устанавливаемые лимиты, а также объем возлагаемых на них обязательств и механизмы обеспечения их соблюдения:

Обеспечение, проверка и контроль соблюдения лицами, находящимися на профилактическом учете, административном контроле и пробационном контроле, установленных ограничений и выполнения возложенных на них обязанностей, а также применение воспитательных и правовых мер к этим лицам и их социальной адаптации, разработка и реализация «Протокол действий» по;

На основе институтов административного контроля и профилактического учета определены задачи внедрения института профилактического контроля.

In accordance with the decree, the concept of public safety of the Republic of Uzbekistan in accordance with Appendix 1, the strategy for the development of the public safety system in the Republic of Uzbekistan in 2022-2025 in accordance with Appendix 2, the promotion of public safety in the Republic of Uzbekistan in 2022-2025 The “road map” for the implementation of the strategy for the development of the supply system in 2022 was approved in accordance with Appendix 3.

The concept of public safety of the Republic of Uzbekistan is attached to Appendix 1, the strategy for the development of the public safety system in the Republic of Uzbekistan in 2022-2025 is attached to Appendix 2, the strategy for the development of the public safety system in the Republic of Uzbekistan in 2022-2025 the implementation "road map" was approved according to Annex 3.

In accordance with the “Strategy for the development of the public safety system in the Republic of Uzbekistan in 2025” approved on the basis of this decree, regulation and systematization of relations in the field of public safety and elimination of existing legal gaps and conflicts, maintenance of public order, development of an algorithm for the joint movement of forces and means of ministries and agencies involved in the prevention of offenses, ensuring traffic safety and coordinating probation activities, maintaining public order, including public events, and continuously improving it, public safety wide implementation of modern forms and working methods and advanced information technologies in the provision of services, minimizing the human factor in service activities by increasing the digitization of the public security system to 90%, preventing recidivism by persons under administrative control and probation control. reduction tasks are defined.

Also, in the “ROAD MAP” for the implementation of the strategy for the development of the public safety system in the Republic of Uzbekistan in 2022-2025, approved by this decree, to persons under preventive accounting, administrative control and probation control clearly defining the limits to be set, as well as the scope of the obligations imposed on them and the mechanisms for ensuring their compliance:

Ensuring, verifying and controlling the compliance of persons under preventive accounting, administrative control and probation control with the established

restrictions and fulfilling the obligations imposed on them, as well as applying educational and legal measures to these persons and their social adjustment development and implementation of the “Protocol of Actions” on;

On the basis of the institutions of administrative control and preventive accounting, the tasks of introducing the institution of preventive control are defined.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari tomonidan har chorak yakuni bo‘yicha surunkali alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka muhtalo bo‘lgan, tanosil kasalliklariga chalingan shaxslar hamda ruhiy kasallar ro‘yxatlari sog‘liqni saqlash muassasalaridan alohida so‘rov xati orqali rasman olib boriladi. Shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi qarorda qarorni chiqargan profilaktika xizmati xodimining lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi, qaror chiqarilgan sana va joyi, qaror qaysi shaxsga nisbatan chiqarilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, yashash, ish, o‘qish joyi) va profilaktik hisobga qo‘yish asoslari ko‘rsatiladi.[6]

Shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi qaror mazkur qarorni chiqargan profilaktika ishini olib borishga mas‘ul xodim tomonidan imzolandi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunga voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasining turlarini ko‘rsatib o‘tish, shuningdek, ularning huquqbuzarliklardan jabrlanib qolishlarini oldini olish bo‘yicha viktimologik profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Bundan tashqari, 2017-yil 14-mart kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan bo‘yicha tashkil etilgan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi”ing asosiy vazifalari qatoriga quyidagi vazifani ham kiritish lozim bo‘ladi:

“huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarning hisobini yuritish tizimini tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda jabrlanuvchilar va jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar bilan olib boriladigan profilaktika ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshirish”.

- huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini chora-tadbirlarini amaliyotda qo‘llash bo‘yicha vakolatli organlar tomonidan ichki normativ xujjatlarini ishlab chiqish;

- fuqarolarning turli ko‘rinishdagi huquqbuzarliklardan jabrlanishlariga qarshi OAVda ko‘rsatuvlar tashkil etish va unda aholining ishtirokini ta‘minlash orqali jamoatchilik fikrini o‘rganish;

- Internet tarmog‘ida fuqarolarning huquqbuzarliklardan jabrlanib qolishlarini oldini olishga qaratilgan ma‘lumotlar, ko‘rgazmali lavhalarni joylashtirish; - ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar va voyaga yetmaganlarning turli ko‘ngilsiz hodisalarning qurboni bo‘lib qolayotganliklari, o‘z joniga qasd qilishga majbur bo‘lishlarini oldini olish

maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda ijtimoiy tarmoqlarda ularning jabrlanib qolishlariga qarshi qaratilgan ma’lumotlarni kiritib borish ishlarini amalga oshirish.[7]

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytadigan bo’lsak amaldagi qilinadigan ishlar yuzasidan avvalam bor Inson huquqlari va erkinliklariga etibor berilishi lozim shaxsni huquq va erkinliklarini cheklanishini qadr qimmatini shani qonun bilan himoyalaniishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Shavkat Mirziyoyev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi./ Xalq so‘zi., 2016., № 243 (6678) B.1-3.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni, O‘RQ-371-son 14.05.2014-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalarini faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2896-sonli qarori, 18.04.2017- yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-mart kuni qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka karshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2833-son qarori.
5. Жалилов, Н. 2022. Профилактика инспектори маъмурий иш юритиш фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари. Жамият ва инновациялар . 2, 12/S (Feb. 2022), 348–352. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss12/Spp348-352>.